

JAHON TRANSPORT TURLARI VA KLASSIFIKATSIYASI

*Buxoro Davlat Pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Geografiya
va Iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi
Halimova Malika Hidoyat qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqola jahon transport tizimining tarkibiy qismi bo'lgan turli transport turlari va ularning klassifikatsiyasini tahlil qiladi. Transport turlari jahon iqtisodiyotining rivojlanishi, xalqaro savdo aloqalari va turizmni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Maqolada transport turlarini tasniflash mezonlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari, rivojlanish tendensiyalari va global iqtisodiyotga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Maqolada transport turlarini tasniflashning asosiy mezonlari, jumladan transport vositalari, infratuzilma, tashish masofasi, yuk turi va iqtisodiy samaradorlik kabi omillar tahlil etiladi. Transportning asosiy turlari (temir yo'l, avtomobil, dengiz, havo, quvur va elektron transport)ning xususiyatlari, rivojlanish darajasi va geografik taqsimlanishi o'rganiladi. Shuningdek, transport sohasidagi innovatsiyalar, raqamlashtirish va barqaror rivojlanish tamoyillarining transport turlariga ta'siri baholanadi.

Kalit so'zlar: Jahon transporti, transport turlari, transport klassifikatsiyasi, temir yo'l transporti, avtomobil transporti, dengiz transporti, havo transporti, quvur transporti, elektron transport, transport infratuzilmasi, logistika, innovatsiya, barqaror rivojlanish.

KIRISH:

Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishda xom-ashyo va yoqilg'i sarfining kamayishi, temir yo'llarning elektrlashuvi, turli xil Quvur transporti, yuqori quvvatli elektr uzatish tarmoqlari, dengiz transportini konteynerlashtirish va hokazolar transportning ishlab chiqarishni joylashtirishdagi rolini kamaytirmoqda. Ammo shunga qaramasdan, transportning mahsulot qiymati shakllanishida, tannarxida hissasi katta. Transport tarmog'i rivojlanishi va joylanishi qator geografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq. Jumladan, tabiiy geografik omillardan tabiiy sharoit, shamol, yog'in-sochin, bulut, tuman, rel'yef shakllari, tuproq va uning fizik xususiyatlari, gidrogeologik sharoit transportning barcha turiga va transport yo'llariga kuchli tasir ko'rsatadi. Masalan, yer sharining ayrim mamlakatlarida (Boliviya, Peru) 4700 - 4800 m dengiz sathidan balandlikda joylashgan tog' mintaqalarida temir yo'llar odatda daryo, bo'ylab, ba'zi joylarda tunellar orqali o'tadi, murakkab sharoitda tor izli yo'llar quriladi. Shuningdek, temir va avtomobil yo'llar qurilishida ko'priklar qurish ham katta ahamiyatga ega. Tog' daryolarida ko'priklar uncha uzun emas, tekislikda esa ular

uzundir. Umuman, temir yo'llarni qurish katta vaqt va mablag'ni talab qiladi, ammo ular shunga muvofiq uzoq muddat xizmat qiladi.

Asosiy qism: Jahon xo'jaligida transport o'ta muhim rol o'ynaydi. Jahon transport tizimi o'z ichiga turli yo'llarni, transport korxonalarini, transport vositalarini qamrab oladi. Transport tarkibiga quruqlikdagi transport (avtomobil, temir yo'l, ot-arava), suv (dengiz, daryo, ko'l), havo, Quvur, elektr transporti kiradi. So'nggi yillarda transport turlari ko'payib va rivojlanib bormoqda, ularning joylanishi ham o'zgarmoqda, An'anaviy temir va avtomobil, suv (daryo, dengiz va okean), havo transporti bilan bir qatorda Quvur transporti ham rivojlanib bormoqda. U ko'pincha neft-gaz sanoati mavjud bo'lgan hududlardan turli istemol rayonlariga mahsulot yetkazib beradi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda esa Quvurlarda hatto qattiq jinslar-temir rudasi, ko'mir kabilar ham yuboriladi («pulpoprovod»). Barcha transport turlari ikkita asosiy vazifani bajaradi, ya'ni: yuk va Yo'lovchilar tashish. Yuk tashishda transport tizimida tashiladigan mahsulot yoki xom-ashyoning transporttabelligi, masofasi va tarkibi, qiymati hisobga olinadi. Eng arzon, odatda dengiz (okean) transporti hisoblanadi. Undan keyingi 23 o'rinda yirik daryolardagi transport turadi, Temir yo'l transporti ham bu borada ancha arzon hisoblanadi. Transportning ham hududiy majmualari mavjud. Bunga transport tugunlari misol bo'la oladi. Yirik transport markazi va tugunlarida o'ziga xos ob'yektlar (tamirlash zavodlari, omborxonalar, bevosita transport bilan bog'liq qurilish materiallari va boshqa sanoat korxonalari) joylashadi. Transport yo'llarining umumiy uzunligi (dengiz trassasiz)-35 million km. Yo'lovchi tashishda avtomobil transporti, jahon yukini tashishda dengiz transporti hal qiluvchi rol o'ynaydi, MDH respublikalari, Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Belorussiyada Yo'lovchilarning asosiy qismi temir yo'l transportida, AQSh va G'arbiy Yevropaning qator davlatlarida esa avtomobilda, Xitoyda ichki suv transportida tashiladi. Temir yo'llarning dunyodagi umumiy uzunligi 1 million km.ga teng bo'lib, ko'pgina davlatlarda uning uzunligi qisqarib borayotganligi kuzatiladi. Natijada, temir yo'lda umumiy yuk tashish kamaymoqda.

Xulosa: Jahon transport tizimi global iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, xalqaro savdo aloqalari, turizm va jahon iqtisodiy o'sishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Transport turlari va ularning klassifikatsiyasi transport tizimining tuzilishi, funksiyalari va rivojlanish tendensiyalarini tushunish uchun zarurdir.

Transport turlarini tasniflash mezonlari transport vositalari, infratuzilma, tashish masofasi, yuk turi va iqtisodiy samaradorlikni o'z ichiga oladi. Asosiy transport turlari (temir yo'l, avtomobil, dengiz, havo, quvur va elektron transport) o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turli vazifalarni bajaradi. Transport infratuzilmasini rivojlantirish, transport xizmatlarining sifatini oshirish va transport sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish jahon transport tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Transport geografiyasi - geografiya.uz <http://geografiya.uz/uzb-iqt-ijtggeografiyasi/941-transport-geografiyasi.html>
2. Xidraliyev K.E., Karshibayeva L.K. TRANSPORT, SANOAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI GEOGRAFIYASI Guliston – 2020 (49-53) betlar.
3. Isayev Akbarjon Abdulxamidovich TRANSPORT GEOGRAFIYASI (Uslubiy qo‘llanma) Toshkent «MUMTOZ SO‘Z» 2019

